

XORAZM TASAVVUF ADABIYOTINING DAVRIY TASNIFLANISHI

Ametova Ulbosin Kamiljanovna,

*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm tasavvuf adabiyotining shakllanish jarayoni, rivojlanish bosqichlari va davriy tasnifi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tasavvuf ta'limotining turkiy adabiyotga kirib kelishi, uning badiiy tafakkur rivojiga ko'rsatgan ta'siri hamda Xorazm adabiy muhitida yuzaga kelgan diniy-irfoniy adabiyotning asosiy xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijasida Xorazm tasavvuf adabiyotining rivoji tarixiy bosqichlarga ajratilib, ularning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, Xorazm adabiyoti, irfoniy adabiyot, zohidlik, tariqat, hikmat janri, turkiy adabiyot.

Annotation. This article analyzes the formation, development, and periodization of Sufi literature in Khorezm. The study examines the introduction of mystical ideas into Turkic literature and their influence on literary thought. Special attention is given to the literary environment of Khorezm and the emergence of religious and mystical literature in the region. The research concludes that the development of Khorezm Sufi literature can be divided into several historical stages with distinct literary features.

Keywords: Sufism, Khorezm literature, mystical literature, Turkic literature, asceticism.

Аннотация. В статье рассматриваются формирование, развитие и периодизация суфийской литературы Хорезма. Анализируется проникновение мистических идей в тюркскую литературу и их влияние на развитие художественного мышления. В результате исследования развитие хорезмской суфийской литературы подразделяется на несколько исторических этапов.

Ключевые слова: суфизм, хорезмская литература, мистическая литература, тюркская литература.

Kirish. Islom dunyosida tasavvuf singari murakkab bir jarayonning vujudga kelish sabablarini tushunish uchun u tug'ilgan jamiyat holatini o'rganish zarur [Islom tasavvufi manbalari. 7]. Xorazmda tasavvuf adabiyotining vujudga kelishi o'lkada islom dinining keng yoyilishi bilan bog'liq. Turkiy adabiyot tarixida irfoniy-diniy-tasavvufiy mavzular kirib kelishi IX asrlardan Islom dinining mamlakatimiz sarhadlariga kirib, xalq ongiga va shuuriga singib, uning azaliy udumlariga aralashib, e'tiqodi darajasida mustahkamlanib borishi bilan bog'liq. Diniy-tasavvufiy g'oyalar va qarashlar turkiy adabiyot tarixida o'z tadrijiy taraqqiyotiga ega. Tasavvuf va adabiyotning yaqinlashuvi inson axloqini poklash, uni komillik darajasiga ko'tarish g'oyalari bilan bog'liq bo'lib, adabiyotning ko'zga ko'ringan vakillari ijodida olam va odam munosabatlarini tahlil qilish, zohiriy va botiniy go'zallikka, ruh ozodligi, qalb pokligi, ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarda axloqiy yetuklikka erishish yo'llarini ko'rsatish asosiy mavzu sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiyot tarixida inson kamolotida ma'rifatullohning o'rnini belgilash va ommaga yetkazishning takomillashib borishi ko'zga tashlanadi. Turkiy badiiy adabiyotda diniy-irfoniy-tasavvufiy mavzuning in'ikos etishi va shu yo'sindagi obrazlarning yaratilishi XI asrdayoq boshlangan. Turkiy adabiyotning dastlabki badiiy dostoni Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari adabiyotimiz tarixidagi ilk tasavvufiy obraz va zuhd motivini ozida gozal bir tarzda aks ettirishi bilan

muhimdir. “Ushbu dostonning kattagina qismi (salkam yarmi) aynan zuhd mavzusi tasviriga bag‘ishlangan. “Yusuf Xos Hojib asarida tasavvuf ohanglarining mavjudligi tasodifiy emas: tasavvuf g‘oyalari IX asrdan boshlab musulmon dunyosi uzra targ‘ib etila boshlagan. Shu jihatdan turkiy va jumladan, o‘zbek tasavvufining ibtidosini Ahmad Yassaviydan emas, Yusuf Xos Hojibdan boshlash mantiqan to‘g‘ri bo‘lardi” tarzidagi hukmga to‘la qo‘shilish kerak. Yusuf Xos Hojibning tasavvufiy mazmundagi qarashlari, asosan, asardagi zohid obrazi – O‘zg‘urmish orqali badiiy talqin qilingan. Adibning O‘zg‘urmish obrazida gavdalantirgan zohidona xarakteri zuhd mavzusining turkiy adabiyotdagi keyingi rivojiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan” [Jumayev I. Diss. 107].

Adabiyotlar sharhi. Shu o‘rinda olim haqli. Adabiyotimiz tarixida dastlabki zohid obrazini tariqat asoschilarining ijodidan emas, ayni Yusuf Xos Hojibning asaridan izlash haqiqatga yaqinroq bo‘ladi. Adib oz asarida zuhd motivi va zohid obrazini O‘zg‘urmish timsolida juda aniq chizgilarda dalillar bilan tasvirlaydi. Chunki bu obrazdagi sifatlar tasavvufning zohidlik davri vakillari hisoblangan va tarixda zuhd bilan sifatlanib, ya’ni zohidona yashab o‘tgan Ali roziyallohu anhu, Uvays Qaraniy, Abdulloh ibn Muborak, Hasan Basriy, Ibrohim Adham, Boyazid Bistomiy, Sufyon Savriy, Sahl Tustariy, Sahl ibn Ali, Abu Shurayh kabi sahoba-yu mashoyixlarga xos bolgan xususiyatlar bilan uygundur. XI asrda Yusuf Xos Hojib ijodi bilan turkiy badiiy adabiyotga kirib kelgan tasavvuf mavzusi, sofiy obrazi va zuhd motivi XII asr adabiyotida Ahmad Yasavviy va uning izdoshlari ijodida davom ettirildi. Bu davrga kelib zohid obrazi orif (oshiq) obraziga, zuhd motivi esa ishq (oshiqlik) motiviga aylana bordi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadgu bilig” dostonining muayyan qismini tashkil qilgan tasavvuf mavzusi endigi adiblar ijodini to‘la qamrab ola boshlagan. Chunki XI asrda islom olamida tasavvuf ta’limoti ancha keng quloqch yozib, zohidlik davrini bosib o‘tib, allaqachon oriflik (oshiqlik) davriga, tariqat nazariyasi shakllanishi davriga qadam qo‘yib ulgurgan bir davr edi.

Natijalar. Markaziy Osiyoda ikki yirik tariqat: yassaviylik va kubraviylik tariqatlari XII asrda xalq orasida juda mashhur va allaqachon o‘z maktablariga asos solib ulgurgan edi. Bu tariqat asoschilari o‘z tariqatlarining nazariyalarini yaratish bilan birga badiiy ijod bilan ham shug‘ullanishgan. Ahmad Yassaviy adabiyotimiz tarixida hikmatlari, Najmiddin Kubro esa o‘z tasavvufiy risolalari va ruboiylari bilan mashhur. Shu bilan birgalikda ularning har ikkalasi o‘zlarining juda katta tariqat maktablariga asos solishgan. Bu maktab vakillari o‘z o‘rnida tariqat izdoshi bo‘lish bilan birga, ijodda ham salaflari izidan borishgan. Bu o‘z-o‘zidan turkiy adabiyotda mavzu jihatidan katta bir davrni o‘z ichiga qamrab oladigan islomiy-tasavvufiy-didaktik adabiyotning vujudga kelishiga asos yaratdi. Ayni shu jarayonning yuksak cho‘qqisini biz Xorazm adabiyotida kuzatishimiz mumkin.

XII asrlardan boshlab Xorazm adabiyotining turkiylashuv davri hisoblanadi. Ayni shu davrlarda Xorazmda turkiy tilda yassaviylik tariqatining yirik vakili Sulaymon Boqirg‘oniy, Qul Ali, Nosiriddin Rabg‘uziy, Mahmud ibn Ali as-Saroyi, Husam Kotib kabi ko‘plab ijodkorlar o‘z asarlari bilan diniy-tasavvufiy-didaktik adabiyotga asos

soldilar. Ayni shu davr adabiyotiga nisbatan, ya'ni XII asrdan to XV asrgacha bo'lgan davr Xorazm adabiyotiga nisbatan tasavvuf adabiyoti degan atamani ishlatish juda o'rinlidir. Chunki bu davrda yaratilgan asarlarda asosiy maqsad Qur'on va Hadis ilmini sodda til va uslubda xalqqa yetkazish edi. Sulaymon Boqirg'oniy tomonidan tasavvufiy hikmatlar aytilganligi, Qul Ali Qur'on syujeti asosida Yusuf qissasini badiylashtirganligi, Nosiriddin Rabg'uziy va Mahmud ibn Ali as-Saroyilar nasriy agiografiyaning namunasi bo'lgan asarlarida payg'ambarlar tarixini yoritganligi, Shayx Sharaf Hojaning she'riy shaklda islom dinining qonun-qoidalarini yozganligi shu sababdandir.

Keyingi davr adabiyotiga kelib esa tasavvuf mavzusi sof badiiy asarlar tarkibiga singdirib yuborila boshladi. Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Qutb Xorazmiyning "Xusrav va Shirin", Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" "Merojnoma" asarlari shular jumlasidandir. Ushbu asarlarda adiblar o'zlarigacha yaratilgan tasavvufiy obrazlarni ramziylashtiradi. Sulaymon Boqirg'oniy sababli Xorazmda keng yoyilgan yassaviylik tariqati va shu zaminda vujudga kelgan kubraviylik tariqati g'oyalari badiiy asarlarning umumiy mazmun-mohiyati bilan birlashtirib yuboriladi.

Xonliklar davriga kelib esa tasavvufiy g'oyalar ramzlar va timsollar orqali ifodalanadigan allegorik adabiyot namunalari vujudga kela boshladi. Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr", Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarlari tipida dostonlar yaratish an'anasi Xorazm adabiyotida ham shakllandi. Mavlono Xoja Qozi Payvandiy Rizoiyning "Qush tili" dostoni, Muhammadniyoz Nishotiyning "Qushlar munozarasi" manzumasi, "Xamsa" dostonlari an'anasida yozilgan "Husn va Dil", Ahmad Tabibiy qalamiga mansub "Vomiy va Azro" dostonlari shular jumlasidandir.

Xorazm lirik adabiyotida turkiy tilda Sulaymon Boqirg'oniydan boshlangan hikmat janri va forsiy tilda Najmiddin Kubrodan boshlangan ruboiy janrlarida tasavvuf g'oyalarining aks etishi keyinchalik lirikaning barcha janrlarida faol davom ettirildi. Hofiz Xorazmiy, Rojiiy, Munis, Ogahiy, Avaz O'tar, Ahmad Tabibiy, So'fi, Komil Devoniy kabi ko'plab shoirlarning g'azallari, tarji'band, qit'a va ruboiylarida tasavvuf g'oyalari tarannum etildi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, Xorazm tasavvuf adabiyoti o'z taraqqiyoti tadrijida bir qancha davrlarni bosib o'tgan. Buni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Xorazmshohlar davri Xorazm adabiyoti;
2. Oltin O'rda davri Xorazm adabiyoti;
3. Temuriylar davri Xorazm adabiyoti;
4. Xonliklar davri Xorazm adabiyoti.

Xulosa. Xorazmshohlar davri Xorazm adabiyotining xos xususiyati shuki, Bu davr tasavvufiy g'oyalar shakllanishining muhim bosqichi bo'ldi. Oltin O'rda davrida diniy-didaktik tasavvufiy adabiyot rivoj topdi. Temuriylar davrida tasavvufiy g'oyalar badiiy

adabiyot bilan uyg'unlashgan. Xonliklar davriga kelib esa allegorik va ramziy tasavvufiy adabiyot shakllandi.

Bu davrlarning har birining o'z adiblari va mavzulari mavjud. Har bir adib o'z davri ijtimoiy-siyosiy muhitidan, hukmron bo'lib turgan mavzulardan, xalqning ehtiyojidan kelib chiqib asar yaratgan. Bunday ehtiyojlar Xorazm tasavvuf adabiyotini mavzuviy jihatdan ham tasniflab o'rganishni taqazo etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm adabiy muhitida tasavvufiy g'oyalar dastlab diniy-didaktik shaklda namoyon bo'lgan bo'lsa, keyinchalik badiiy adabiyot tarkibiga chuqur singib ketgan Xorazm tasavvuf adabiyoti turkiy adabiyot tarixining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U tasavvuf ta'limoti, islom madaniyati hamda turkiy badiiy tafakkur uyg'unligi natijasida shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov, B. (2001). *O'zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: Fan.
2. Bertels, E. E. (1965). *Sufizm va sufiylik adabiyoti*. Moskva: Nauka.
3. Komilov, N. (2009). *Tasavvuf*. Toshkent: Movarounnahr.
4. Qosimov, B., va boshqalar. (2004). *O'zbek adabiyoti tarixi (qadimgi davr)*. Toshkent: O'qituvchi.
5. DeWeese, D. (1994). *Islamization and native religion in the Golden Horde*. Pennsylvania: Pennsylvania State University Press.
6. Eraslan, K. (1991). *Ahmed Yesevî ve Divan-ı Hikmet*. Ankara: Kültür Bakanlığı.
7. Rabg'uziy, N. (1990). *Qissasi Rabg'uziy*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
8. Boqirg'oniy, S. (1991). *Hikmatlar*. Toshkent: Fan.
9. Najmiddin Kubro. (2003). *Tasavvufiy hayot*. Toshkent: Movarounnahr.
10. Qutb Xorazmiy. (1987). *Xusrav va Shirin*. Toshkent: Adabiyot va san'at.